

Respondentlarning statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlilini o'tkazish tartibi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Respondentlarning statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlilini o'tkazish tartibi (keyingi o'rinlarda – Tartib) O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, xo'jalik yurituvchi subyektlar (keyingi o'rinlarda – respondentlar) tomonidan statistika organlariga elektron (yoki qog'oz) shaklda taqdim etiladigan statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi statistik tahlilini o'tkazish mexanizmini belgilaydi.

2. Mazkur Tartib respondentlar tomonidan taqdim etiladigan statistika hisobotlaridagi xatoliklar va nomuvofiqliklarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi, shuningdek, statistika organlari tomonidan hisobotlarni qabul qilish jarayonida respondentlar bilan o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'yish uchun mo'ljallangan.

3. Tartib BMTning Yevropa Iqtisodiy komissiyasi, Yevrostat hamda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining birlashgan guruhi tomonidan ishlab chiqilgan va xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model-GSBPM) talablari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, statistika ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlashga yo'naltirilgan.

Mazkur Tartib GSBPM milliy modelining V. Ma'lumotlarni qayta ishlash va VI. Ma'lumotlarni tahlil qilish bosqichlari doirasidagi jarayonlarda bajariladigan ishlarni o'z ichiga oladi.

4. Tartibda quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

statistika hisoboti – O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan shakl, tartib va muddatlarda respondentlar tomonidan birlamchi ma'lumotlar asosida shakllantiriladigan va bepul taqdim etiladigan statistik ma'lumotlar;

respondent – rasmiy statistikani tayyorlovchilarga individual va boshqa ma'lumotlarni statistika maqsadlarida taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs.

5. Statistika hisobotlarini Milliy statistika qo'mitasi tomonidan belgilangan ro'yxatga ko'ra yuridik shaxslar, zarur hollarda (hududlar yoki faoliyat turlari

kesimida batafsil ma'lumotlarni tayyorlashda) yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari taqdim etadilar.

Ro'yxat quyidagilar asosida shakllantiriladi:

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri ma'lumotlari;

yuridik shaxslarning statistika hisobotining tegishli shakli bo'yicha kuzatuvga tushgan alohida bo'linmalari (vakolatxonalari va filiallari) ro'yxati;

statistika hisoboti tegishli shakllarining bazaviy hisobot ko'rsatkichlari;

boshqa davlat organlaridan olingan tashkilotlar ro'yxati (masalan, Hukumat dasturlari monitoringiga kiritilganlar, ifloslantiruvchi moddalarni chiqarishni amalga oshiruvchilar, faoliyatni amalga oshirish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lganlar va h.k.).

6. Statistika hisobotlari orqali olinadigan statistika ma'lumotlari, bir yillik statistika dasturi doirasida statistika ishlarini bajarish uchun zarur bo'lgan axborotlarni o'z ichiga qamrab olishi lozim.

7. Respondentlardan olinadigan statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi statistik tahlili, statistika organining ushbu hisobotni yig'ish, qayta ishlash va tahlil etishga mas'ul bo'lgan tegishli bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

8. Respondentlarning mansabdor shaxslariga, statistika organlariga statistika hisobotlarini topshirishdan bosh tortganlik yoki taqdim etmaslik, yoki uni tegishli shaklning manzil qismida ko'rsatilgan muddatni o'tkazgan holda taqdim etganlik, shuningdek, ishonchsiz ma'lumotlarni taqdim etish, qo'shib yozish, ko'rsatkichlarni ataylab pasaytirib ko'rsatish, statistika hisobotining boshqa buzilishlari uchun qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlik belgilangan.

9. Statistika organlari tomonidan, olingan statistika hisoboti ma'lumotlarida nomuvofiqliklar yoki qoidabuzarliklar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish haqida respondentlarga ko'rsatmalar beriladi.

Statistika organlari statistika hisobotlarini taqdim etish tartibini buzgan mansabdor shaxslarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy jazo choralarini qo'llash huquqiga ega.

2-bob. Statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish

10. Statistika organlari, statistika ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash maqsadida, respondentlardan olingan statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshiradi.

Bunda, statistika hisoboti ishonchli ma'lumotlar asosida to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi o'rganiladi, shuningdek, hisobot ma'lumotlarini o'tgan davrlar (oy, chorak, yil) ma'lumotlari bilan solishtirish va mantiqiy tekshirish ishlari amalga oshiriladi.

11. Respondentlar tomonidan taqdim qilingan statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi statistik tahliliga quyidagilar kiradi:

taqdim etilgan statistika hisobotida ma'lumotlar qamrovining to'liqligini nazorat qilish;

statistika hisobotidagi ma'lumotlarni kodlashtirish va rekvizitlarni to'ldirishning to'g'riligini tahlil qilish;

statistika hisobotidagi mavjud ko'rsatkichlarni arifmetik va mantiqiy nazoratdan o'tkazish;

statistika hisobotidagi miqdoriy ko'rsatkichlarni oldingi hisobot davrlari, idoraviy hisoblarning mavjud ma'lumotlari bilan taqqoslashlarni qo'shgan holda, hisobotni har tomonlama tekshirishni amalga oshirish;

statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi tahlili natijasi yuzasidan respondentga elektron ma'lumotnoma yoki ko'rsatma yuborish.

12. Taqdim etilgan statistika hisobotida ma'lumotlar qamrovining to'liqligini nazorat qilishda asosan barcha respondentlardan statistika hisobotining to'liq olinganligi yoki olinmaganligi o'rganiladi va bu jarayonlar "Statistika hisobotlarini yig'ish jarayonida hisobot topshiruvchi subyektlarni to'liq qamrab olinishini taminlash bo'yicha ishlarni tashkil etish reglamenti"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, statistika hisobotining tegishli shakli bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etuvchi respondentlarning ro'yxati (maqsadli jamlanma) bilan statistika hisobotini taqdim etgan respondentlar ro'yxati solishtiriladi.

Solishtirish jarayonida ro'yxatga kiritilgan respondentlarning identifikatsiyalashtirish ko'rsatkichlari (yuridik shaxsning nomi, korxona va tashkilotlarning umumiy tasniflagich kodi (KTUT), soliq to'lovchining identifikatsiyalashtirish raqami (STIR) hamda klassifikatsiya ko'rsatkichlari (asosiy faoliyat turining xarakteri, joylashgan joyi, tashkiliy-huquqiy shakli, kichik tadbirkorlik subyektlariga mansubligi) tahlil qilinadi va ularning faollik holatiga aniqlik kiritiladi.

13. Respondentlar tomonidan taqdim etilgan statistika hisoboti ma'lumotlaridagi xatoliklarni tekshirish ishlari statistika hisoboti shaklining manzil qismida belgilangan taqdim etish muddatidan keyingi ish kunidan boshlab amalga oshiriladi.

14. Respondentlardan olinayotgan statistika hisoboti ma'lumotlari tahlilini samarali tashkil etish maqsadida, statistika organining tegishli bo'linmasi, hisobot ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini o'rganish jarayonida:

ko'rsatkichlarni arifmetik va mantiqiy nazoratdan o'tkazadi;

ma'lumotlarni kodlashtirish va rekvizitlarni to'ldirishning to'g'riligini tahlil qiladi;

miqdoriy ko'rsatkichlarni oldingi hisobot davrlari, shuningdek, vazirliklar, idoralar va tashkilotlarning ma'muriy ma'lumotlari bilan taqqoslashlarni qo'shgan holda, hisobotni har tomonlama tahlilini amalga oshiradi.

Shuningdek, statistika hisobotini yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonida respondentlar bilan muntazam hamkorlik qiladi, ularga zarur maslahatlar beradi, ular tomonidan taqdim etiladigan hisobotlarda tasodifiy va ataylab qilingan xatoliklarni bartaraf etish yuzasidan profilaktika xususiyatiga ega choralarni ko'radi.

15. Respondentlar tomonidan statistika hisoboti ko'rsatkichlari to'liq to'ldirilmay taqdim etilgan hollarda, statistika organlarining tegishli bo'linmasi xodimlari:

qisqa muddatlarda ko'rsatkichlarning yo'qligi sabablarini (elektron, yozma xabar yuborish yoki telefon orqali) aniqlaydi;

zarur hollarda, soliq organlaridan respondentning faollik holatiga aniqlik kiritadi;

tuzatilgan hisobotni respondent tomonidan qayta taqdim etilishi bo'yicha choralar ko'radi.

16. Statistika hisoboti ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash, shu jumladan hisobot ko'rsatkichlarining maksimal to'g'ri to'ldirilishiga erishish, respondent tomonidan tasodifiy va ataylab (ongli ravishda) qilingan xatolarni bartaraf qilish orqali amalga oshiriladi.

Tasodifiy xatolar – bu respondent tomonidan statistika hisoboti shakllarini diqqat-e'tiborsiz to'ldirish oqibatida sodir etilgan xatolar (raqam boshqa ustunga yozilgan, jamlanma ko'rsatkichlar yoyib ko'rsatilmagan, o'lchov birliklari shaklda belgilanganlariga mos kelmaydi, tasniflash kodlari noto'g'ri aniqlangan, raqamli bo'lmagan ko'rsatkichlardagi xatoliklar va boshqalar).

Ataylab (ongli ravishda) qilingan xatolar – respondent tomonidan statistika hisoboti shaklida ongli ravishda noto'g'ri ko'rsatilgan va bu holatning ataylab qilinganligi respondent tomonidan tan olingan ma'lumotlar (tezkor hisobot ko'rsatkichlari yillik hisobot ko'rsatkichlariga nisbatan (yoki aksincha) sezilarli darajada yuqori (yoki past) ko'rsatilgan, o'tgan hisobot davri ko'rsatkichlari bilan sezilarli darajada farqqa ega bo'lgan, moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirishga vakolatli organlar tomonidan birlamchi hisob va statistika hisoboti o'rtasida nomuvofiqliklar aniqlangan va h.k.).

17. Statistika organining tegishli bo'linmasi, respondent tomonidan taqdim etilgan statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlilini Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika hisobotini elektron shaklda taqdim etish tartibi to'g'risidagi nizom" (ro'yxat raqami 3312, 16.07.2021- yil) talablariga qat'iy rioya qilgan holda va Statistika ishlarini tayyorlash dasturida belgilangan muddatlarda amalga oshirishi kerak.

18. Statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlili tugaganidan so'ng respondentga:

statistika hisobotini taqdim etish tartibini buzish, hisobot ma'lumotlarini buzib ko'rsatish yoki hisobotni taqdim etish muddatini buzish holatlari aniqlanmaganda – ma'lumotnoma;

statistika ma'lumotlarida xatolar aniqlangan hollarda, barcha xatolar va nomuvofiqliklar ro'yxatini hamda ularni tuzatish bo'yicha batafsil tavsiyalarni, to'g'rilangan ma'lumotlarni taqdim etish muddatini ko'rsatgan holda ko'rsatma elektron shaklda yuboriladi.

Respondentga ma'lumotnoma yoki ko'rsatmani yuborish, statistika organining statistika hisoboti ma'lumotlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirgan bo'linmasi tomonidan, belgilangan tartib va muddatlarda amalga oshiriladi.

3-bob. Statistika hisoboti ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish samaradorligini oshirish bo'yicha ishlarni tashkil etish

19. Hisobot ma'lumotlarining sifatliligi va ishonchliligiga erishish maqsadida birlamchi statistik tahlil ishlarini samarali amalga oshirish hududiy statistika organlarining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi va buning uchun doimiy ravishda quyidagi turdagi profilaktika ishlari amalga oshirilishi lozim:

statistika organi xodimlarining malakasini muntazam oshirib borish (har ikki yilda kamida bir marta);

statistika hisobotini taqdim etuvchi respondentlar bilan amaliyotga joriy etilgan statistika hisobotlari, ularga kiritilgan o'zgartirishlar, statistika hisobotini aniq va to'liq tuzish hamda elektron shaklda taqdim etish tizimi bilan tanishtirish yuzasidan tushuntirish ishlari olib borish;

respondentlarning huquq va majburiyatlari, statistika sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlar talablarini tushuntirish bo'yicha mahalliy ommaviy axborot vositalarida (televideniye, radio, gazeta va b.) chiqishlar tashkil etish;

respondentlar va statistika organlari o'rtasida samarali hamkorlik o'rnatish, ulardan kelib tushgan savol, taklif va muammolarni o'rganish, mavjud muammolarni bartaraf etish maqsadida statistika organlarining ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari orqali respondentlarga tushuntirishlar olib borish;

statistika sohasiga oid qonunchilik talablari, statistika hisobotlarini taqdim etish tartiblari to'g'risidagi dolzarb mavzularda qo'llanmalar (bukletlar) ishlab chiqish va respondentlarga tarqatish;

respondentlardan statistika hisobotlarini to'ldirish va taqdim etish masa'alalari bo'yicha "Ishonch telefoni"ga kelib tushgan savollar va murojaatlarni ko'rib chiqish;

statistika organlarining rasmiy veb-saytlarida Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar, uslubiy qo'llanmalar va statistika hisoboti shakllarini to'ldirish bo'yicha ko'rsatmalarni joylashtirib borish.

20. Profilaktika tadbirlarining barcha yo'nalishlarida, birinchi navbatda, statistika hisobotlarini to'g'ri va ishonchli ma'lumotlar bilan to'liq to'ldirish, hisobotlarni elektron shaklda taqdim etish tizimi, uning qulayliklari va afzalliklari to'g'risida respondentlar, ayniqsa yangi tashkil etilgan respondentlar bilan keng qamrovli tushuntirish-targ'ibot ishlari amalga oshirilishi lozim.

21. Statistika organining tarmoq bo'linmalari ish rejalarida statistika hisobotlari ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilish samaradorligini oshirish tadbirlari ko'zda tutilishi shart.

4-bob. Yakuniy qoidalar

22. Milliy statistika qo'mitasining markaziy apparati tarmoq boshqarmalari va hududiy statistika organlari rahbarlari statistika hisobotlari ma'lumotlarini birlamchi statistik tahlil qilishni ta'minlash bo'yicha ishlarning samarali tashkil etilishi uchun shaxsan javob beradilar.

23. Statistika organining muayyan statistika hisoboti shakliga mas'ul etib biriktirilgan bo'linmasining aniq bir hisobot shakli yuzasidan hisobot intizomini ta'minlash bo'yicha faoliyati, agar mazkur statistika hisobotini taqdim etuvchi respondentlarning 100 foizi tegishli davr uchun hisobotlarni belgilangan muddatda topshirgan va ulardan kamida 80 foizi taqdim etilgan hisobotlarda xatolar va nomuvofiqliklarga yo'l qo'ymagan bo'lsa, samarali hisoblanadi.

24. Mazkur uslubiy hujjatni ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va amaliyotga joriy qilish bosqichlari Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan "Statistika sohasida tasniflar, metodologiyalar va kuzatuv shakllarini ishlab chiqish va tasdiqlash bo'yicha namunaviy uslubiy qo'llanma"ga muvofiq bayon etilgan.